

MOLXONA ASARIDA INSON RUHIYATI

Homidova Mehriqiy Farmon qizi

Alfraganus Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish

O'zbek tili adabiyoti yo'nalishi

O'F 23-28-guruh talabasi

Tel: 91 011 52 03

Ilmiy rahbar: SH. Mahmudova

Annotatsiya: *Biror bir asarni o'qishdan oldin uning nomidan yoki qahramonlaridan voqealar qanday rivojlanishini bilib olish qiyin emas. Oruell Jorj “Molxona” yani “Animal farm”. Asar ruhida erkin fikrlar, asarning yaratilish sabablari haqida qisqacha qarashlar. Hayvonlar obrazi orqali insoniy qarashlar aks etgani “ularning qay biri cho'chqa-yu, qay biri odam ekanini” bilish to'g'risida. Kitob hajm jihatdan kichik, majoziy ma'noda juda katta tushincha beradigan asardir.*

Kalit so'zlar: *“Animal farm” Jorj Oruell, molxona, siyosiy roman, diktatura, inqilob va hokimiyat, Sovet ittifoqi ramziy sifatlari olingan.*

KIRISH

Jorj Oruell asl ismi Erik Artur Bler, ingliz yozuvchisi va publitsisti. “Hayvonlar xo'jaligi haqida g'aroyib qissa” va “1984” asarlari muallifi, yana bir qancha asarlari bilan mashhur. Masalan, Hayvonlar xo'jaligi haqida g'aroyib qissa” asarida mantiqiy obrazlar orqali “Manel ferma “sida ro'y bergan voqealarni tasvirlagan. Molxona asarida esa ferma hayvonlarining ikki oyoqlilar ustida yurish qilganlari, o'zlarining erkin, mustaqil hayot kechirish uchun olib borilgan harakatlar va shu kabi ishlar. Biz insonlar fermani bir hukumat deb oladigan bo'lsak, hukumat boshiga qari cho'chqalar kelishi. Yozish va o'qishni oz bo'lsada bilganligi uchun barcha ferma hayvonlariga o'z so'zlarini o'tkazishga urinishadi. Hayvonlar mustaqillik, erk, ozodlik, baxt, farovon hayot uchun kurashishadilar ammo ularning maqsadlari sarobga aylanadi. Harakat natijasi aslida, erkin, teng hamda baxtli jamiyat qurishga umidlar qilib to'xtamasdan mehnat qilishgani haqida hikoya qilib beriladi.

Molxona asarining asosiy qahramonlari, Mayor(hayvonlar jamiyati g'oyasining asoschisi), Snouboll(inqilobni tashkil qiluvchilardan biri), Napoelon(hayvonlar jamiyatida keyinchalik diktator bo'lgan yetakchi) hisoblanadi. Shuningdek, mehnatkash xalqni ifodalovchi Bokser, dono-



Benjamin(keksa eshak)va ma'naviyatchi cho'chqa Qichqiroq ham muhim obrazlar jumlasiga kiradi.Ularning timsollari:

-Mayor:hayvonlar jamiyatini barpo etish g'oyasi bilan chiqqan, lekin o'limidan oldin o'z vasiyatini bajara olmagan oqsoqol cho'chqa. Bu obraz marksizmning asoschilari Karl Marks va Fridrich Engelsga qiyoslanadi.

-Snouboll: inqilobni tashkil qiluvchilardan va jamiyatda ilg'or fikrli rahbarlardan biri.Ammo keyinchalik Napoleon tomonidan quvib yuboriladi va uning nomi ham qoralanadi.(qiyosan, Leon Trotskiy ushbu obrazga ancha yaqin, chunki aynan Trotskiy Stalin tomonidan o'zining kommunistik qarashlariga zid bo'lganligi sababli barcha lavozimlardan chetlashtirilib, keyinchalik o'ldirtiradi).

-Napoeon:hayvonlar jamiyatining yetakchisi, keyinchalik hayvonlar dohiysi(qiyosan, Stalin va undan keyingi kommunistik davlat yetakchilari).

-Benjamin:keksa dono eshshak,ko'p narsani biladi, aqlli ammo hech narsaga aralashmasdan yurishni afzal ko'radi(bu obrazni hamma narsani biladi, sezadi ammo siyosatga aralashishdan o'zini tiyadigan ziyolilar qatlamiga qiyoslash mumkin).

-Bokser:o'ta mehnatkash, o'z sog'lig'idan ham jamiyat muvaffaqiyatini ustun qo'yadigan oxir-oqibat qassobxonaga topshirilgan ot(mehnatkash(soviet)aholisi ushbu obrazga qiyoslash mumkin).

-Qichqiroq:ma'naviyatchi cho'chqa.Napoleonning topshiriqlarini boshqa hayvonlarga yetkazish uchun mas'ul obraz.U har qanday holatda ham ustamonlik bilan odamlar ongiga kommunistik g'oyalarni singdirishga usta.

FERMADA turli xil qoidalar paydo bo'la boshlaydi.

- 1.Ikki oyoqda yuradigan har kim dushmandir.
- 2.To'rt oyoqlilar va qanotlilar birodarlardir.
- 3.Hayvonlar kiyim keymaydilar.
- 4.Hayvonlar to'shakda yotmaydilar.
- 5.Hayvonlar sharob ichmaydilar.
- 6.Hech bir hayvon boshqa hayvonni o'ldirishi mumkin emas.
- 7.Barcha hayvonlar teng huquqlidir.

Ammo ular muoffaqiyatga erishib ikki oyoqlilarga qarshi chiqib ularni fermadan uzoqlashtiradillar. Ikkita cho'chqa boshqaruvni qo'lga olgach bu nizom o'z-o'zidan o'zgara boshlaydi.Hayvonlar keyim keymaydi emas, keyinchalik cho'chqalar keyimda yuradigan va to'shakda uxlashni boshlashadi. Lekin keyinchalik muoffaqiyatsizlikka uchrashadi va yana diktatura qurboniga aylanishadi. Arkonlarni o'zlariga mostlashtirib hayvon ekanligini unutish darajasiga boradilar.HAYVONIZM deb nomlangan ta'limot-g'oya barchaga singdirilib, "Angliya hayvonlar"madhiyasi barchalarining tillari va dillaridan



joy oladi. Mister Jonsga qarshi chiqib, o'z hayvonobodini tashkil etadi. Fermada istiqomat qiladigan boshqa hayvonlarning ikki oyoqlilardan ozod bo'lishgani hech narsani o'zgartirmaydi. Ular yana ham ko'p mehnat qilib cho'chqalarga qaram bo'lib qolishadi.

Asardan iqtiboslar:

Barcha hayvonlar tengdirlar. Keyinchalik bunga o'zgarish kiritiladi (biroq ayrim hayvonlar boshqalaridan ko'proq tengdirlar) yani, cho'chqalar.

Odamlar hech narsa ishlab chiqarmay, hammasini hazm qiladigan yagona mahluqdir. Yozuvchi asarida shunday yozadi: insonlar majlisida hayvonlar nomzodi sifatida cho'chqalar ham ishtirok etgani, cho'chqalar ham insonlardek keyinib kelishgani, ular ham insonlardek ikki oyoqda yurishganini tasvirlangan. Asar so'ngida esa "...nigohlar cho'chqalardan odamlarga, odamlardan cho'chqalarga ko'char, ular yana va yana goh odamlarning yuzlariga, goh cho'chqalarning yuzlariga boqar, ammo ularning qay biri cho'chqa-yu, qay biri odam ekanini ajrata olmasdilar".

Xulosa: Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkinki, ushbu asarda ko'p marotaba aytilganidek, insonlar va hayvonlar haqida fikr yuritilmaydi. Aslida davr fojialari, davlat boshiga bir vaqtning o'zida ikkita nomzod kelishida ziddiyatli holatlar. (Bir kemada ikkita Kapitan bo'lmasligi)ga yaqqol misol qilib olsak bo'ladi. Hokimiyat qoshiga kelganda esa o'z talablariga most ravishda harakat qilish holatlari, va'da berilgan lekin natija qilinmaslik, qolganlarni ishontira olish yo'lida uzoqdan-uzoq mushohadalar yuritish xolatlari aynan o'sha davrda mavjud bo'lgan tizimni yaqqol emas, hayvonlar obrazida ruhiy kechilmalarni insonlar ongiga yetkazish yozuvchining oldiga qo'ygan maqsadi deb o'ylayman. Bu aynan Sovet tuzimi haqida deb o'ylamayman, negaki, zulmkor va o'z manfaatlarini xalq manfaatidan ustun qo'yadigan rahbarlar qaysi davrda bo'lsa ham topiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Molxona" asari George O.
2. Ziyo.uz
3. asarlar.uz
4. ziyonotes.uz

